

RABOTI MALIK – O’RTA ASRNING TAKRORLANMAS ILG’OR MUHANDISLIK  
G’OYASI MAHSULIDIR.

Fayziyeva Dilora Samad qizi

*Navoiy davlat pedagogika instituti 2- kurs magistranti.*

Azaldan Sharq xalqalarining durdonasi va ilm-ma'rifat o'chog'i sifatida tan olingan yurtimiz o'zida buyuk qomusiy ajdodlarimizni voyaga yetkazdi. Birgina Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy kabi buyuk faylasuf va allomalarning asarlari dunyo sivilizatsiyasining oltin xazinasidan munosib o'rinni olgan hamda jahon fani va madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan. Hatto ularning ilmiy meroslarida zamonaviy ilmiy texnologiyalarning asosi bo'lgan bilimlar integratsiyasi, fanlararo yondashuv namunalarini juda ko'plab ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag'rikenglik hamjihatlik kabi olajanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi barcha vatandoshlarimiz yuraklarining tub-tubidan o'rinni oldi

"Man shu bebaho ne'mat tuhfasi o'laroq ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon. Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shuni alohida qayd etish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda 7 mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me'moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991-yildan Xivadagi Ichonqal'a qo'riqxonasidagi, 1993-yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000-yildan Shahrisabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskoning "**Umumjahon madaniy merosi**" ro'yxatiga kiritildi. Ba'zi muqaddas obidalarimiz qaytadam ta'mirlandi. Misol uchun Navoiy viloyati Xatirchi tumanida joylashgan Oqmasjid. Mazkur viloyatda ham boshqalaridagi kabi ko'plab qadamjolar mavjud. Shulardan biri Raboti-Malik karvonsaroyidir".<sup>43</sup>

"Ma'lumotlarga ko'ra, Raboti-Malik Navoiy shahridan 10 km uzoqlikda joylashgan Qoraxoniylar davrining tarixiy kompleksi hisoblanadi. Ushbu minora Buxoro yo'lida joylashgan. Raboti-Malik karvon saroyi qoraxoniylardan bo'lgan Shams al-Mulk Nasr ibn Ibrohim(1068-1080yy) tomonidan XI asrning 70-yillarida qurilgan. XII asrning birinchi choragida esa qoraxoniylardan bo'lgan Arslon-xon Muxammad ibn Sulaymon (1102-1130) tomonidan qayta qurilgan. Taxmin qilinishicha, bu minora avval yozgi boshqaruv qarorgohi bo'lgan. Buni arxeologlar tomonidan olib borilgan ishlarning natijalaridan bilib olish mumkin."<sup>44</sup>

<sup>43</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarixiy\\_obidalar-ma'naviyat\\_ko'zgusi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarixiy_obidalar-ma'naviyat_ko'zgusi).

<sup>44</sup> Zasipkin.B.N. Arxitektura Sredney Azii. M., 1948.

Xususan, topilgan topilmalar aynan o'sha vaqtda yashagan saroy zodagonlariga tegishli bo'lgan. Bundan tashqari bunday hashamatli devorlar va ustunlar ham aynan o'sha davrlarda xon saroylari va qarorgohlaridagina qurilgan. Keyinchalik esa ushbu minora qayta qurilib, karvonsaroyga aylantirilgan. Afsuski, bugungi kunda ushbu hashamatli minoradan faqatgina markaziy portal va devorlar qolgan, xolos. XX asr o'rtalarida olib borilgan qazilma ishlari jarayonida mazkur noyob minoraning qay darajada mukammal rejalashtirilganligini aniqlashga muvaffaq bo'lishgan. Bu qurilma ikki qismga ajratilgan mustahkam devorlar bilan o'ralsan 100x100m hajmdagi maydonni egallagan. Raboti-Malik hududida masjidlar, gumbazli ayvonlar, hammomlar, yashash joylari, otlar va tuyalar uchun mo'ljallangan turargohlarning vayronalari topilgan.

"Shuningdek, metallardan ishlangan buyumlar, qimmatbaho sopol idishlar, zargarlik buyumlari, qozonlar, ko'pgina tangalar topilgan. Minora alohida uslub va g'aroyib texnik usullar bilan qurilgan. Uning qurilishida keramika, gil hamda yog'ochdan foydalanilgan. Eng ahamiyatlisi, shu kungacha olimlar uchun minoraning nima maqsadda qurilganligi sir bo'lib qolmoqda. Biroq oxirgi vaqtarda Raboti-Malik karvonsaroy vazifasini o'tagani tarixiy faktdir. N.B. Nemsova ushbu qurilmani o'rganib chiqilishiga o'z hissasini qo'shgan. Aynan N.B. Nemsova ushbu qurilma dastlabki onlarda shahardan tashqarida joylashgan saroy vazifasini o'tagan deb taxmin qilgan. Karvonsaroy yaqinida Sardoba (suv saqlashga mo'ljallangan sisterna) qurilgan. Sardoba o'sha davrda sayyoqlar va savdogarlar uchun ichimlik suvi saqlaydigan buloq vazifasini bajargan."<sup>45</sup>

"Raboti Malik haqidagi qimmatli ma'lumotlar rus matbotida ham uchraydi. Unga ko'ra, rus matbuotida Raboti Malik haqidagi ma'lumotlar birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan. 1841-1842 yillarda Buxoro amiri saroyiga yuborilgan K. F. Butenev boshchiligidagi rasmiy rus diplomatik missiyasi a'zolarini Buxoro dashtida joylashgan o'rta asr qal'asining mahobatli vayronalari hayratda qoldirdi. Tashlab ketilgan dasht istehkomining xarobalari, biroq antik davrning jozibasini o'zida saqlab qolgan holda sayohatchilarda unutilmas taassurot qoldirdi. Ekspeditsiya a'zosi N.V.Xanikov cho'lda yodgorlik borligi to'g'risida ozgina ma'lumot beruvchi dalillar bilan cheklanib qoldi. Tabiatshunos A.A.Leman esa qadamjoning asosiy jabhasi, sxematik eski va eng muhimi Raboti Malik interyerining batafsil tavsifini qoldirdi. Shu bilan birga A. A. Leman yodgorlik atrofida uning haqiqiy tarixini aks ettiruvchi rivoyatlarni ham to'pladi, bundan 700-800 yil avval gullab-yashnagan mustahkam qal'a xarobalari xon va uning merosxo'rlari qarorgohi bo'lib, xonlardan biri, ya'ni Movorounnahrning ko'chmanchi boshlig'i - Melikxon tomonidan qurilganini ta'kidladi."<sup>46</sup>

"K.F.Butenevning missiyasidan so'ng esa, yodgorlikni Rossiya bo'limlarining turli vakillari va chet ellik sayohatchilar ziyorat qilishdi. N. F. Sitnyakovskiy, N. A. Maev, A.

<sup>45</sup> Bulatov M.S, Geometricheskaya garmonizasiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv M,1978.

<sup>46</sup> Vohidov M,M,, Mirzayev Sh.R Binolar va inshootlar konstruksiyalari T.:2003

Vamberi, E. S. Skyler shular jumlasidandir. Achinarlisi, ular A.Leman to'plagan ma'lumotlariga hech qanday ma'lumot qo'shisha olishmagan va bu yodgorlik o'sha bosqichda G'arb faniga noma'lumligicha qoldi. 1920-yillarga kelib, yana bir qarash, ya'ni bu obida qoraxoniylar hukmdori Shams al Mulk (1068-1080) ga tegishli bo'lganligi, bunga esa "Kitobi Mullozoda" (XVI asr) hoshiyalaridagi Shams al mulkom rabotning hijriy 471-yilda qurilgani haqidagi yozuvlar asos bo'ldi. Keyinchalik, A.A.Semyonov qo'shimcha yozma ma'lumotlarga tayangan holda, mazkuu keltirilgan fikr noto'g'ri ekanligini isbotladi."<sup>47</sup>

"Darhaqiqat, Raboti Malik faqatgina sovet davrida o'rganila boshlandi. Birinchi arxeologik tadqiqotlar 1970-yillardan boshlab amalga oshirila boshlandi. 1973-1975, 1977 va 1997-2001 yillarda (rahbari N.B.Nemtseva) qazishma ishlari olib borildi. Natijada, istehkomning sxemasi o'rganildi va ilk marta arxitektura haqida umumiy tasavvurga ega bo'lindi. Arxeologik ishlar jarayonida olingan artefaktlar - kulolchilik, zargarlik buyumlari, numizmatik materiallar to'plami katta ilmiy qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, Raboti Malikda keng xronologik diapazonda kuzatilgan maishiy kulolchilik va hunarmandchilik rivojlanish darajasining eng ommaviy ko'rsatkichi yaqqol namoyon bo'ladı. Birinchi mararotoba, Buxoro vohasidagi bir joyda XI asr oxiri — XVIII-asr boshlarida idish-tovoq va oshxona anjomlari olinib, bu tipning rivojlanish bosqichlarini aks ettiruvchi uzluksiz xronologik ustun tuzildi."<sup>48</sup>

"Raboti Malikning boshqa obidalardan farq qilinishi uning qurilish arxitekturasining g'oyatda murakkab va jozibadorligi bilan ham ajralib turadi. Bu yodgorlik XI-XII asrlarning eng ilg'or muhandislik g'oyalarini taqdim etgan holda, ular sakkizburchak va burchaklaridagi qo'sh juft ustunlarga asoslangan. Sinxron arxitekturada tengi yo'q bo'lib, muhandislik texnologiyasining bu mo'jizasi O'rta asr Sharqining eng katta gumbazlaridan biri edi. Gumbazning nafaqat o'lchamlari hayratlanarli, balki aniq hisoblangan konstruksiya - gumbazning asosini turli diametrli qo'shaloq ustunlar ustiga o'rnatish - O'rta Osiyoning hech bir joyida takrorlanmagan muhandislik g'oyasi bo'lgan. Xuroson va Eron shimolida (Isfaxondagi Jomiy masjidi, Zavvar va Daxistondagi masjidlar) asosiy sakkizburchak yoki kvadratda bir xil diametrli ustunlarga asoslangan sinxron gumbazlar mana shu qurlish g'oyasi asosiga qurilgan. Xuddi shu kompozitsiya keyinchalik XV asrda Turkiyada ham rivojlangan."<sup>49</sup>

Xulosa qilib aytganda, tarixiy obidalar - ma'naviyatimiz ko'zgusi hisoblanadi. Ularda o'zbek xalqining milliy-urf odatlari va turmush tarzi aks etib turadi. Shuningdek, har bir muqaddas qadomjolarning o'ziga yarasha yaratilish tarixi bor. Bu esa yurtimizning o'tmishi haqidagi qimmatli ma'lumotlarning yorqin namoyondasi. Demak ularni asrab-avaylash, ziyyarat uchun tashrif buyurgan chog'larda hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda eng muhimi kelajak avlodni ham mana shunday muqaddas obidalardan bahramand bo'lishlarini ta'minlamog'imiz zarurdir. So'nggi

<sup>47</sup> Vohidov.M.M Buxoro arxitektura yodgorligi,"B":2009

<sup>48</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarixiy\\_obidalar-ma'naviyat\\_ko'zgusi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarixiy_obidalar-ma'naviyat_ko'zgusi).

<sup>49</sup> Zasipkin.B.N. Arxitektura Sredney Azii. M., 1948.

vaqtarda O'zbekistonda nafaqat yodgorliklarni tiklash ishlari orqali madaniy merosni saqlashga, balki milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga va jahon madaniyatida tan olinishi yuzasidan ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, ming yillar mobaynida, Raboti Malik va shunga o'xshash betaror minoralar, qadimiy gumbazlar ko'plab shaharlarimizning tashrif qog'oziga aylandi. Ayni vaqtida esa, qadimiy me'morlarning ushbu noyob namunalari, beaho madaniy meros ob'ektlari sifatida maxsus maqomga ega bo'lib, ular davlatning alohida muhofazasi ostidadir. Demak, bizga butun boshli tariximizdan so'zlovchi va hamisha o'zligimizni anglatib turuvchi bunday muqaddas madaniy meroslarimizni ko'z qorachig'idek asrash, faqatgina davlatning emas, balki har birimizning muqaddas burchimizdir!